

# XIZMATLAR SOHASI

(dastlabki ma'lumotlar)

**2018 yil yanvar-aprel**


## Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1293,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 123,2 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 701,2 ming.so'mni tashkil etdi.

“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi”ni amalga oshirilishi natijasida, 2018-yil yanvar-aprel oylarida bozor xizmatlari hajmi 1293,7 mlrd.so'mni tashkil etib,o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga moliyaviy xizmatlar bo'yicha 23,2 % ga; me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha 19,1 % ga ; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 17,4 % ga; ijara xizmatlari bo'yicha 11,7 % ga; yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha 10,3 % ga erishildi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




**2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	27,5 %
Savdo xizmatlari	26,0 %
Moliyaviy xizmatlar	11,9 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,6 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,3 %
Shaxsiy xizmatlar	4,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,5 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,2 %
Boshqa xizmatlari	2,7 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,2 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 27,5 %) , savdo xizmatlari (26,0%), moliyaviy xizmatlar (11,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,6 %) hissasiga to`g`ri keldi.


## 2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- |          |                                       |           |  |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| <b>1</b> | Xizmatlar - jami                      | <b>8</b>  | Ta'lim sohasidagi xizmatlar                  |
| <b>2</b> | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | <b>9</b>  | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar       |
| <b>3</b> | Moliyaviy xizmatlar                   | <b>10</b> | Ijara xizmatlari                             |
| <b>4</b> | Transport xizmatlari                  | <b>11</b> | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| <b>5</b> | Yashash va ovqatlanish xizmatlari     | <b>12</b> | Shaxsiy xizmatlar                            |
| <b>6</b> | Savdo xizmatlari                      | <b>13</b> | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            |
| <b>7</b> | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | <b>14</b> | Boshqa xizmatlar                             |

2018 yil yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (23,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (19,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (17,4 %), kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2018 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan umumiy xizmatlarning hajmi 1293705,6 mln.so'mni tashkil etgan.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (355939,1 mln.so'm), savdo xizmatlari (336480,3 mln.so'm), moliyaviy xizmatlar (153976,2 mln.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111285,1 mln.so'm) bo'yicha kuzatildi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 701,2 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Tajibekov  
(71)230-82-15